

KOLLEKSIYALARNI YARATISH fanidan yakuniy nazorat savollari

1. Axborotni taqdim etishning ilk shakllari qaysilardan iborat? Yozuv paydo bo'lishi axborot almashinuviga qanday ta'sir ko'rsatgan?
2. Qo'lyozma kitoblar davrining o'ziga xos xususiyatlari nimada? Elektron axborot vositalari paydo bo'lishi bilan qanday o'zgarishlar yuz berdi?
3. Raqamli texnologiyalar axborotni taqdim etishda qanday imkoniyatlar yaratdi?
4. Axborotni taqdim etish evolyusiyasining asosiy bosqichlarini sanang. Axborotni taqdim etish vositalari deganda nima tushuniladi?
5. An'anaviy axborot taqdim etish vositalariga nimalar kiradi? Elektron axborot vositalariga misollar keltiring.
6. Internet axborotni taqdim etish vositasi sifatida qanday ahamiyatga ega? Axborotni samarali taqdim etishda multimedia vositalarining o'rni qanday?
7. Nashr tushunchasiga ta'rif bering. Davlatlararo standart bo'yicha nashrlar qanday tasniflanadi?
8. Milliy standart bo'yicha nashrlar turlarini sanang. Kitob, broshyura va risolaning farqi nimada?
9. Davriy nashrlar qanday turlarga bo'linadi? Elektron nashr deganda nima tushuniladi?
10. Axborot-kutubxona fondi nima? Nima uchun fond tizim sifatida qaraladi?
11. Fondning asosiy elementlari nimalardan iborat? Fondning tashqi muhit bilan aloqasi qanday amalga oshadi?
12. Fond tizimining samaradorligi nimalarga bog'liq? Axborot-kutubxona fondining asosiy vazifasi nima?
13. Fondni shakllantirish jarayoni qanday amalga oshiriladi? Fond tarkibiga qanday hujjatlar kiradi?
14. Universal va maxsus fondlar o'rtasida qanday farq bor? Fondni saqlash va muhofaza qilishning ahamiyati nimada?
15. Foydalanuvchilar ehtiyojini hisobga olish fondni shakllantirishda qanday rol o'ynaydi?
16. Kolleksiya tushunchasiga ta'rif bering. Asosiy kolleksiya turlarini sanang.
17. Noyob va qimmatli nashrlar kolleksiyasi nima? Elektron resurslar kolleksiyasiga nimalar kiradi?
18. Mavzuli kolleksiyalar qanday shakllantiriladi? Mahalliy nashrlar kolleksiyasining ahamiyati nimada?
19. Fond tuzilmasi deganda nima tushuniladi? Fond qanday belgilar asosida tuziladi?
20. Asosiy va yordamchi fondlar o'rtasidagi farq nimada? Ochiq va yopiq fondlar nima?
21. Fondni mazmun jihatidan tuzish qanday amalga oshiriladi? Elektron fond an'anaviy fondan qanday farq qiladi?
22. Fond tuzilmasini takomillashtirish yo'llarini ayting. Kutubxona fondining asosiy belgi va xususiyatlarini sanang?
23. Axborot-kutubxona fondi ilmiy tushuncha sifatida qanday izohlanadi?
24. Axborot kutubxona fondini shakllantirish bosqichlarini ayting va ta'rif bering?
25. Axborot kutubxona fondlarini joylashtirish usullarini ta'riflang?
26. Axborot kutubxona fondnig asosiy belgilarini ayting va ta'riflang?
27. Fondda hujjatlarni joylashtirish tamoyillari nimalarga asoslanadi.?
28. Axborot kutubxona fondini tashkil etish siklini izohlang?
29. Hujjatlarni tavsiflashga qo'yiladigan talablarni ayting?
30. Fondni hisobga olib borishning shakl va usullari qaysilar? Kutubxona tizimida kutubxona fondi (KF)ning o'rni nimalardan iborat?
31. Axborot kutubxona fondlarini tashkil qilish texnologiyasini tavsiflang?

32. Fondlarni shakllantirishda qanday tamoyillarga tayaniladi?
33. Kutubxona fondining arxiv, muzey, kitob do'konidan farqi nimalardan iborat?
34. Kutubxona fondini shakllantirishning mazmuni va maqsadi nimalardan iborat?
35. Axborot-kutubxona fondini to'ldirishda hujjatlarni tanlashning mohiyati nima?
36. Kutubxonalar fondiga kitoblarni joylashtirishda qanday belgilarga e'tibor beriladi?
37. Hujjatlar fondi modellari nima? Haqiqiy hujjatli fondga nisbatan ular qanday afzalliklarga ega? Ular qanday hollarda qo'llaniladi?
38. Hujjatlar fondini modellashtirishda uning parametrlarini qanday shaklda ifodalash mumkin?
39. Fondi tekshirishni tushuntiring va nima uchun bu jarayon amalga oshiriladi?
40. Kitoblarni joylashtirish usuli foydalanuvchilar uchun ma'lumotlarning ochiqligiga qanday ta'sir qiladi?
41. Kutubxonada hujjatlarni joylashtirishni optimallashtirish uchun qanday zamonaviy texnologiyalardan foydalaniladi?
42. Kutubxona axborot fondini saqlash talablari va qoidalari qaysi me'yoriy hujjatlar asosida ishlab chiqilgan?
43. Axborot kutubxona fondi hujjatlarini saqlash sharoitlariga qanday talablar qo'yiladi?
44. Kutubxona hujjatlarini saqlashda harorat va namlik qanday rol o'ynaydi?
45. Fond hujjatlarini zararkunandalardan himoya qilish uchun qanday ehtiyot choralarini ko'rish kerak?
46. Kutubxonada kitob va hujjatlarni saqlashda material turlarini hisobga olish nima uchun muhim?
47. Hujjatlarni saqlashni tashkil etishning qanday qoidalari ularning uzoq muddatli saqlanishi va foydalanish imkoniyatini ta'minlashga yordam beradi?
48. Axborot-kutubxona hujjatlarining hisobga olish qanday tarkibiy qismlardan iborat?
49. Axborot-kutubxona hujjatlari (resurslari) nuqtai nazaridan «jamlanma hisob» atamasi nimani anglatadi?
50. Kutubxona fondining qanday hujjatlari kutubxonaning umumiy hisobiga kiradi?
51. Kutubxona hujjatlarining yig'ma hisobi va shaxsiy hisobi o'rtasidagi farq nima?
52. Jamlanma yozuvlarni yuritish uchun qanday hujjatlar yoki blankalardan foydalaniladi?
53. Kutubxonada fondning xavfsizligi qanday ta'minlanadi? Elektron resurslarni saqlash ishlari qanday tashkil etiladi?
54. Kutubxonalarda nodir va qimmatli nashrlarni saqlash uchun qanday zamonaviy texnologiyalar qo'llaniladi?
55. Kutubxona hujjatlarini restavratsiya qilish va konservatsiya qilishning asosiy farqi nimada?